

O'QUVCHILARDA HAQIQIY DUNYO QARASHNI SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Z.T.Usmonov

A.Qodiriy nomidagi ЖДПУ mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Maqolada o'quvchilar huquqiy dunyo qarashni shakillantirishning pedagogik jihatlar buyuk allomalarimizning g'oyalari taxlil asosida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Bedil, Farobiy, Qodiriy, najot, aql, fazilat, rux, tafakkur, huquq, dunyoqarash, xayol, parvoz, afsal, majburiyat

"Har narsagakim etibdi aql,
Undan afzalean, bunni yaxshi bil.
Dunyo mevasin shirinkori sen,
Hammasidan ham hosildori sen.
Sen etsang parvoz etar majoling"
Mirza Bedil
Najot-bilimda"

"Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda
Podshoxlar ham o'zlari istab va harakat qilib
emas boshqa podshohliq ularga faqat tabiiy
majburiyat bo'lib qolardi" Farobiy.

"Najot – Maktabda,
Najot-ma'linda,
A.Qodiriy

Tartib bilan epigrafda keltirilgan fikrlarning bevosa mavzuga taluqli jihatlarini izohlashga urinamiz. Ma'nolar otasi "deb nom qozongan zabardast alloma Mirza Abduqodir Bedil (asli shahrisabizlik kiyinchalik Hindistonda yashagan) insonning o'zligini jilvalantiradigan ko'zgu dil ruhiy (sherda bu xayol deb ifodalangan) kuchlari va tafakkuriy idrok ekanligi, uning har narsaga qadirligini teran ifodalab bergen edi.

Uning fikricha, insonning "o'zligi", dil bag'rida yashiringan asl rux (tafakkur) ni, uning ichki manzaralari va hayoliy tovlanishlarining qay darajada ro'yogha chiqaoqlanligi bilan baholanadi. Ushbu tarifni shaxs (o'quvchilar xuquqiy dunyo qarashi)ga berilgan tam ma'nodagi go'zal bir g'oya deyish mumkin bo'ladi.

Mazkur ma'rifni mavzuga bog'lab tavsiflashga harakat qilamiz. U holda xuquqiy dunyo qarashni inson(shaxs) ruxiy (tafakkuriy) va vujudiy (jismoniy) kuchlari tajassumming qudratlilikiga ko'rsatgichidir" deyish mumkin bo'ladi. Shakillantirishni esa," shakillantirish shahsning hamma tafakkuriy idroku (ruhi)ni tanlagan bish maqsad sari tez va aniq safarbar qilaolishga qadirligiga" deb tariflanishini maqsadga muofiq deb hisoblashimiz shu?

Qadimgi hindlarning " qiyshiq eksang odam o'rib olasan, odam eksang tavmat (xulq) o'rib olasan" degan hikmati ham, ajdodlarimiz bundan juda ilgariyoq huquqiy dunyo qarash orqali yoqimsiz hislatlardan foriq bo'lishi bilan o'z tafakkuri (xuquqiy dunyo qarashi)ni shakillantirish jamiyatda to'kis bo'lib yashashning muhim sharti deb bilgan ishlaridan darak beradi.

Aytilganlar har tomonlama komil inson bo'lishi har birimizdan har birharakatdan dil nigohini xuquqiy dunyo qarashni shakillantirishiga qaratishimiz, ruxiy tafakkur ildizlaridan qayta ko'kartirishimizni bundan o'zga chinakam najot yo'qligini chuqr his etishni taqoza etadi.

Bunday muammo va vazifaning qaydarjada bajarilishi esa o'z navbatida har bir shaxs hamda jamiyatning qadr-qimmatini va insonparvarlik darajasini belgilaydi. Uni taminlashga erishishning yagona sharti esa hamol va bag'oraz xuquqiy dunyo qarashni shakillantirishdir.

Bizningcha, bu muammo va vazifani ikki taraflama hal etishi maqsadga muvofiq. Birinchidan, maskur masala ijtimoiy va bioijtimoiy nisbatlar muammosi bilan bo'g'liq jarayoni ham hal bilan uzviy aloqadordir. Ikkinchidan, ushbu jarayonning xoh biologik, xoh ijtimoiy tamonini mutloqlashtirish bunda munazarali mavzuni qanday (to'g'rimi yoki natog'ri) hal etishiga olib kelishini tahlil etishni taqozo etadi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotda har bir tuzum, va davlatning tarixiy bosqichi (masalan sodiq CCCR va yangi o'zbekiston)ga muayan xuquqiy dunyo qarash muvofiq keladi.. Shu ma'noda aytishi mumkinki, xuquqiy dunyoqarash (konstitusiya) ijtimoiy muhitni bunyod etmaydi, balki ijtimoiy muhit (har bir davlat) uning vujudga kelishiga imkon beradi. Ammo shuni unitmaslik kerakki, insonni faqat ijtimoiy hodisa deb qarash bilan xuquqiy dunyoqarash muammosini to'g'ri hal qilib bo'lmaydi. Ushbu muammoga epigraoldagi Farobiyning padshohning bolasi olbatda (tug'ma fazilat) podshoh bo'la olmaydi degan g'oyasi orqali javob izlashga urinamiz. SHarqda "muallimi avval" ("birinchi muallim") unvonini olgan Aristotildan kiyin muallimi soni" ("ikkinchi muallim") deb nom olgan Abu Nasr farobiyning aytgan fikrlari butun jaxon xalqlari, jumladan sharq va o'rta osiyo xalqlarining inson kamolati (dunyo qarashi) haqudagagi pedagogik nazariyasining yuzaga kelishi va rivojlanishidagi ro'li benihoya kattaligini alohida takidlashi joiz.

Farobi tug'ma mutloq g'oyalar va daholoik qobilyatlarini tan olmaydi. Ammo tug'ma fazilatlar fikriy fazilatlariga bo'yshinishi kerak, xar qanday dunyo qarash (axloq, odab, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, yani ta'lim va tarbiya hal qilinadi, bu ishni ustozlar murabbiylar bajaradilar deydi.

Farobiyning g'oyasining naqadar to'g'rilingini izohlash uchun ba'zi molohazalarga tayanamiz. Kishi (shaxs)ni faqat ijtimoiy hodisa deb qarash emas, ayni paytda ham biologik hodisa deb qaraolmog'i maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, biologik organizim hisoblangan insonlarga barcha tirik mabjudodlardagidek qonuniyatlar (juftlashishi, nasl qoldirish, yashash uchun kurash va boshqa) xos, biroq ijtimoiylik (muhit) insonni barcha tirik mavjudodlardan ajratib turadi, bunday farqni izohlash uchun hohlagancha misollar keltirishi mumkin.

Manbalarda keltirishicha taqdiqotchilar “Aborigen” qabilasida (o’rmonda yarim yalang’och yashaydigan)gi egizak chaqoloqlardan birini olib kelib, ta’lim-tarbiya muhitida boyaga yetkazadi va uning fan doktori ilmiy darajasini olishiga erishadilar. CHaqoloqning qabiladagisi xuddi o’z muhitidagi kabi yarim yalong’och holda yashamoqda edi.

Shunga o’xshash tajribani Akbarshoh ham o’tkazishga majbur bo’lgan holda. Hindistondagi davlatni boshqarishda mahalliy xalq bilan taxt uchun bo’layotgan urish janjallarga chek qo’yib, tinchlikni ta’minlash maqsadida butun insoniyat tomonida taqiqlangan tajribani o’tkazishga majbur bo’ladi va hind millatiga mansub bir rojanining qiziga uylandi. Bu bilan u quda-andachilik uruf-odatlariga tayanib vaziyatni ijtimoiy hal qilishga erishishini nazarda tutadi. Shunda taxt uchun payt poylab yurgan amakivatchalari boshqa dinga mansub qiz bilan oila qurdi kofir deya muhitni yanada chigallashtiradi.

Bunda ikkinchi chigal vaziyatni bartaraf qilish uchun Akbarshoh yuqoridagi tajribani, yani boshqa dinlarga mansub chaqoloqlarni it va mushiklar bilan bir xonada saqob enaga yordamida yetti yil tarbiyaladi. Shundan so’ng tegishli din vakillarini chaqirib, ularga aytishlaricha bu “odamcha” lar qaysi dinga mansub (musulmon, induizm, xristan) deb murojaot qiladi. “Odamchalar” itga o’xshab hunar mushkullarga o’xshab miyovlar va to’rt oyoqlab (emaklab) yurar edi. Bu bilan Akbarino deign ham, til ham tug’ma emas barchasi muhitning maxsuli ekanligi hech kim rad etmaydigan tajriba orqali ilk bor namoyish qilgan edi. Shu o’rinda takidlash joizki, biologik va ijtimoiy hodisalar bilan bog’liq har qanday dunyoqarashlash mushtarak va bunda biologic hodisa irsiy jarayonlar orqali muqarrar jarayonlarni ifoda etadi. Ijtimoiy jarayoni (muhit) lar esa o’zgaruvchan tarzida do’ladi.

Yuqoridagi misollarga asoslanib shunday hulosaga kelish mumkin: O’quvchilar (shaxs)ning xuquqiy dunyo qarashlarini shakillantirishida biologik va ijtimoiy omillar o’zaro ta’sirining murakkab jarayoni to’g’ri tashxis qilishni taqozo etadi.

Bu haqida hazrati navoiy:

Tabiatga har neki odam bo’lur,

Eskirdi odat tabloiy bo’lur. Deb ta’kidlagandi edi. Buning mazmuni shuki kishi o’z oilasida biror hatti-harakat qiliqni qanchali ko’p takror etsa, shuni boshqa joylar (maktab)da ham takrorlaydi.

Fandagi ma’lumotlardan ma’lumki, biologic hodisaning ajralmas qismi hisoblangan irsiyat “nishonalari” har bir insonda, biroq ularning rivojlanishi (Akbarshoh tajribasi) esa, ijtimoiy muyan sharoitlarda tarkib topgan muhit va ta’lim-tarbiya mahsuli bo’lishi faoliyat mohiyatidan ajralmasdir, uning me’yori ma’lum muassalardagi pedagogik jarayonda munosabatlar (dunyo qarashlar)ni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish yo’lida olib boradigan jiddiy chora tadbirlarni qaror topdirish bilan o’lchanadi. Anashu jiddiy chora-tadbirlarning qaror

topishida epigrafdagи A. Qodiriyning g'oyasi eng boshi va muhit mezon hisoblanishini inkor etishning iloji yo'q. Chunki bunda bosh najot mакtabda ta'limda bichimda ekanligi barchaga ma'lum, bu esa yangi o'zbekistonimizdagi sifatli ta'lim tizimining barcha turlaridagi ta'lim tarbiyada o'quvchilar xuquqiy dunyo qarashni, pedagogik jarayonini insonparvarlashtirish va demakratlashtirishi asosida tashkil etgani talab qilinadi. Bu talabning diqqat markazida mustaqil va keng xuquqiy dunyoqarashga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlarni voyaga yetkazish vazifasi turadi. O'quvchilar huquqiy dunyoqarashni shakillantirishning pedagogik jihatlari, pedagogik jarayonida ta'lim-tarbiya insonparvarlashtirish va demakratlashtirish orqali hamkorlik, g'amxo'rlik, adolat, rostgo'ylik halollik kabi ma'naviy ma'rifiy holatlarning vujudga kelishi uchun qulay psixologik muhit yaratiladi. Masku jarayonda o'quvchi o'z faoliyatning sub'ekti sanaladi va o'qituvchi bilan yagona ta'lim jarayonining ikkita sub'ekti hamkorlikda o'quv tarbiyaviy vazifalarni hal etadi.

O'quvchilarda xuquqiy dunyoqarashni shakillantirishning pedagogik jihatlari pedagogikning o'quvchi shaxsiga bo'lgan insonparvarlashtirishgan munosabati: bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urish, bolalarga bo'lgan ishonchining yuqoriligi, o'zaro hamkorlik muhitini yarataolishi, muloqat madaniyatining adolatli bo'lishi, majburlashdan bos kechishi va aksincha, ijobiy munosabat ustинligi tufayligi ko'zlangan maqsadga erishish, kamchiliklarga sabr-qanoatli bo'lishi, ularni bartaraf etishda halol yo'llarni qo'llashlarda namoyon bo'ladi.

Hulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'quvchilarda huquqiy dunyo qarashni shakillanishi uchun o'quvchi:

- avvalo o'zining shaxsiy sifatlari va fazilatlarini ("abbal o'zinga boq, kiyin nog'ora qaq") tahlil qilish, bu boradagi kamchiliklarni va ularga barham berish yo'llarini qo'llash:

- pedagogik jarayonda do'stona va adolatli muhid, g'amxo'rlik va g'amxo'rlikni vujudga keltirish yo'llarini belgilaydi:

- o'quvchilar shaxsini hurmat qilish va oqilona e'zoziy hamkorlik yo'llarini egallash, o'qitish jarayonida do'stona va qulay o'rnak bo'ladigan muhitini yaratishiga oid ijtimoiy-psixologik ko'nikma, malakalarini egallagan bo'lishi.

- o'quvchilarni rag'batlantirish va uni asoslash uslublarni qo'llash ko'nikmalarini;
- o'zining pedagogik va o'quvchilarning huquqiy dunyoqarashdagi kamchiliklarga barham berishning samarali pedagogik jihatlarini egallagan bo'lishi kerak.

Maskur shartlarning bajarilishini ta'minlash maktablarda huquqiy ta'limiy-tarbiya shakillantirish va sifatini oshirishning eng bevosita va samarali yo'llaridan biri, bo'lib uni amalga oshirish uchin o'qituvchining huquqshunoslikka oid bilimlarini va pedagogik mahoratlarini takomillashtirishi, huquqiy ta'limning samarali jarayoni ta'minlaydigan uni va ko'zda tutilgan yakuniy namunaga tomon yo'naltirish

imkoniyatini beradigan pedagogik sharoitlarni yaratishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda huquqiy dunyoqarashni shakillantiruvchi muhitni tashkil qo'yishni uddalaydigan yuqori malakalimutaxassislarni talab qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhamedov Ya. "ikkinchi muallim". Insoniy kamolat haqida. Fan va turkim.1975-yil. №10, 38-31 betlar.
2. Tog'aev X., Hojimuhamedova N. Til haqida liberman-kremin farazi va Akbarshoh tajribasi. "o'zbek tilshunosligi dolzarb masalalari" ilmiy maqolalar to'plashi №2,
3. Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika unversiteti. Toshkent-2008yil, 118-119 betlar.
3. Xayrullaev M.M. Abu Nasr Farobi. Toshkent-1966yil
4. Tromushkin A. Irsiyat ishining asoschisi. "fan va turmish" 1973-yil №1, 10-12betlar
5. Ahliddinov R. Maktabni booshqarish sa'nati- Toshkent, "fan", 2006-yil
6. Qurbonov SH. Seythalilov E. Ta'lim sifatlarini boshqarish-Toshkent, "Turon-Iqbol" 2006-yil.